

YANGI SIRDARYO

Gazeta 1963-yil 1-iyundan "Sirdaryo haqiqati" nomi bilan chiga boshlagan

Jamiyat – islohotlar tashabbuskori



• Ijtimoiy-siyosiy, ommaviy gazeta 15-SON (11709) 21-APREL, 2025-YIL DUSHANBA

@yangisirdaryogazetasi Yangi Sirdaryo 24

sirdaryo24.uz

@yangisirdaryogazetasi

Yangi Sirdaryo Gazetası

Muhokamada viloyat ta'lim tizimi

Viloyat rahbari Erkinjon Turdimov viloyatimizdag'i oliy o'quv yurtlari faoliyati bilan birmabir tanishdi. Ta'lim maskanlarida talabalar uchun yaratilgan sharoitlar har tomonloma tanqidiy tahlil qilindi. Professor-o'qituvchilar bilan muhokama o'tkazildi.

• Tanqidiy tahlil



Aniqlangan kamchiliklar yuzasidan mutasadidilarga tegishli topshiriqlar berildi. 2025-2026-o'quv yili boshlangunga qadar viloyatimiz oliy o'quv yurtlarida ta'lim tizimi zamonaviy talablarga mos bo'lishi va talabalar uchun har jihatdan yetarli sharoitlar yaratib berilishi ta'kidlandi.

O'z navbatida vohamizda maktab ta'limi va uni rivojlantirish, o'quvchilarining viloyat, respublika va xalqaro

oliy ta'limga qamrov darajasi pastligi qayd etildi. Umuman, barcha ta'lim muassasalarini uzyiy bog'liq bo'lishi lozim. Shu sababdan ham eng quyi maktabgacha ta'lim tizimidagi oliy ta'limgacha bosqichma-bosqich hamkorlikda rivojlantirish lozimligi alohida qayd etib o'tildi.

Shu va boshqa savollarga javob berish uchun viloyat hokimi vazifasini bajaruvchi Erkinjon Turdimov huzurida maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi hamda tizimdagi bo'lim rahbarlari birma-bir rejalarini taqdimotini o'tkazishdi.

Muhokamalar davomida tizimdagi mavjud muammolarni

bartaraf etish yo'llari, ta'lim sifatini oshirish, yangi o'quv yiliga tayyorgarlik ko'rish va bitiruvchilarning olyi ta'lim muassasalariga kirish ko'rsatkichlarini yaxshilash, shuningdek, muassasalarga shart-sharoit yaratish bo'yicha qo'shimcha aniq vazifalar belgilab berildi. Harakat rejalarida umumiylikdan voz kechib, bevosita hududbay, muassasaboy vazifalar belgilash zarurligi uqtirildi.

Yakunda ishlab chiqilgan harakat rejalarini takomillashtirish va qayta ishlash uchun qo'shimcha muddat berildi.

Viloyat hokimligi Axborot xizmati

Ma'naviyat olamiga chorlov

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "2020-2025-yillarda kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish va qo'llab-quvvatlash milliy dasturini tasdiqlash to'g'risida"gi qaroriga asosan har yili respublikamizda "Kitobxonlik haftaligi" o'tkazish an'anaga aylangan.

• Kitob haftaligi



Xudo xayringizni bersin,
Yana umringizni bersin.
Uyingizga oftob oling —
Bittagina kitob oling.
Sirojiddin SAYYID

Bugun mamlakatimiz bo'ylab V respublika "Kitobxonlik haftaligi" boshlandi. An'anavyi haftalik doirasida ma'naviy-ma'rifiy tadbirdilar, shu jumladan, kitob ko'rgazmalari, kitobsavdo yarmarkalari, ijodkorlar bilan uchrashuvlar, taqdimotlar, o'qilgan kitoblar yuzasidan savol-javob kechalari o'tkazilishi ko'zda tutilgan.

Viloyat Ma'naviyat va ma'rifat markazida "Kitobsevar millat" shiori ostidagi V respublika "Kitobxonlik haftaligi" ochilishiga bag'ishlangan tantana bo'lib o'tdi. To'g'riroq'i, tadbir ma'naviyat bayramiga aylanib ketdi. Markazga kirishimiz bilan kitoblar olamiga tushib qolgandek bo'ldik. Alisher Navoiy nomidagi viloyat axborot kutubxona markazi xodimlari tomonidan tayyorlangan bir necha qismidan iborat kitoblar ko'rgazmasi barchaning diqqatini tortdi. Bir tomonda yangi adabiyotlar taqdimotlari, ijodkorlar bilan uchrashuvlar, yosh kitobxonlar bilan suhbatlar, turli aksiyalar bo'lib o'tmoqda

— Bunday haftalik nafaqat kitoblar bilan tanishish, balki boy ilmiy-madaniy merosni o'rganish, ruhiy kamolotimizni yanada oshirish, jamiyat uchun nafaqat ilm-fan va madaniyatni rivojlantirish,

To'rtinchı hokimiyat

O'zbekiston Jurnalistlar uyushmasi hamda uyushmaning Sirdaryo viloyati bo'limi tashabbusi bilan Sirdaryo pedagogika texnikumi majlislar zalida Namangan, Jizzax va Sirdaryo viloyatlari jurnalistlari ishtirokida mintaqaviy seminar bo'lib o'tdi. Unda O'zbekiston JU raisi vazifasini bajaruvchi Xolmurod Salimov "Jurnalistning kasb etikasi: bunda qanday meyorlar mavjud?" mavzusida ma'ruza qildi.



JURNALISTNING KASB ODOI VA "TARANNUM" TAQDIMOTI

Mustaqil mamlakatimizda ommaviy axborot vositalariga nisbatan senzurangan bekor qilinishi jurnalist qavmining mas'uliyatini o'n chandon oshirib yubordi. Davlat OAV faoliyatining erkinligini, jurnalistlarning axborot izlash, olish, undan foydalanimish va tarqatishga bo'lgan huquqlari amalga oshirilishini kafolatlashi so'z erkinligiga keng yo'l ochib berdi. Biroq yaratilgan bunday imkoniyatlarni suiiste'mol qilish hollari hali-hamon uchramoqda. Bu hol ayniqsa, turli kanallar va saytlarni yuritayotgan blogerlar faoliyatida yaqqol ko'zga tashlanayapti. Telekanallarda davlat tili normalariga amal qilmaslik urchib borayotir.

— Jurnalist qavmi so'z bilan ish ko'radi, — dedi o'z ma'rzasida X. Salimov. — So'z bilan zargarona munosabatda bo'lmox joiz. Chunki u o'stirishi ham, so'ldirishi ham mumkin. Bas, shunday ekan, jurnalistlar kasb etikasiga qat'iy amal qilmoqlari lozim. Uyushmamiz tomonidan O'zbekiston jurnalistlarining kasb etikasi kodeksi ana shu maqsadda ishlab chiqilgan. Afsus-nadomatlar bo'lsinki,

ayrim jurnalistlar bu hujjatga har doim ham amal qilmayaptilar.

Ma'ruza yuzasidan muzokaralarda so'zga chiqqan jizzaxlik taniqli jurnalist Said Donishev jo'yali taklifni o'rtaga tashladi.

— Uyushmaning viloyatlar bo'limlari Jamoatchilik kengashlari tuzib, kasb etikasi kodeksining



bajarilishini qat'iy nazorat qilib bormoq kerak.

O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan jurnalist Aliqul Xonimqulov esa fikrini jurnalistlarning moddiy ta'minotini yaxshilashga qaratdi.

— Jurnalistning maoshi risoladagidek

(Davomi 2-betda)

(Davomi 2-betda)

• E’tirof

UMR POG‘ONALARIDA 85 YIL

Ilm olish igna bilan quduq qazishga qiyosanadi. Ilm berish, uni yosh avlod ongiga, shuuriga singdirish qazilgan quduqni ma’rifat, ma’naviyat sarchashmalar bilan to’ldirishdir. Dunyodagi eng sharafli, eng mas’uliyatlari kasblar ichida zalvorlisi bu o’qituvchilik, murabbiylilikdir. Navoiy hazratlari - “Haq yo’linda kim sanga bir harf o’qutmis ranj ila, Aylamak bo’lmasa ado oning haqin yuz ganj ila” - deganlarida o’qituvchilik va murabbiylikning naqadar mashaqqatli ekanligini ta’kidlab o’tganlar.

O’qituvechi va murabbiylar bor ekan jamiyat kelajagi bo’lgan yosh avlod ta’lim-tarbiysi ishonchli qo’llarda. Biroq general bo’lishni orzu qilmagan askar, askar emas, – deganlaridek, ustozlik maqomiga erishishni niyat qilmagan, shu uchun harakat qilmagan o’qituvchi, murabbiy bo’lmasa kerak. Mamlakatimiz ilm-faniga munosib hissa qo’shgan fidoyi ustoz, Antik dunyo xalqaro ilmiy akademiyasining doktori, “Do’stlik” ordeni sohibi, professor Abdusalom Jonibekov ham ana shunday ustozlardan biridir.



Sirdaryo viloyati pedagogik mahorat markazida ustozning “Ilm yo’lidagi saodatlari hayot” nomi ostida tashkil etilgan sakson besh yillik ustozning yubileyi chin ma’noda yurtimiz ilm ahli vakillarining katta to’yi tantanasiga aylandi.

Tadbirni mahorat markazi direktori Gulasal Berdaliyeva olib, olimning insoniylik fazilatlari va hayot yo’li xususida so’z yuritdi. O’z navbatida markazning professor-o’qituvchilarini domla Abdusalom Jonibekovga “ota” deb murojaat qilishlari barchani to’lqnantirdi.

Tadborda so’z olgan shogirdlar ustozning ilm yo’lidagi zahmatini, fido’iyigini chin dildan e’tirof etishdi. GulDU professorlari Habibjon Qo’shiyev, Ravshanbek Mahmudov, Hazratqul Qarshiboyev, Guliston davlat pedagogika instituti profesor-o’qituvchilarini nomidan Bahodir To’ychiboyev va Yo’ldosh Karimov kabi olimlar ustozning jamiyatda va oilasida tutgan o’rni, ilm-ma’rifat yo’lidagi zahmatlari haqida gapirdilar.

O’zbekiston “Adolat” SDP markaziy Kengashi raisi Robaxon Mahmudova va Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputati Narimon Umarovlar Abdusalom Jonibekovni qutlug’ yoshi bilan qutlab, u kishiga partyaning esdalik sovg’alarini topshirishdi.

Tadbiriga respublika Qirg’iz milliy madaniy markazi raisi Rahmatulla Jabborov so’z olib, xalqlar do’stligi madaniyatini targ’ib qilishda va

“Janjanay” qirg’iz milliy ansamblini tashkil etib,unga 20 yil davomida rahbarlik qilgan ustozning ulkan hissasini alohida ta’kidladi. Shu bois o’zining mehnatlariga yarasha Abdusalom Jonibekov “Xalqlar do’stligi” ko’krak nishoni, O’zbekiston XDP tomonidan “Iftixor” ko’krak nishoni bilan taqdirlandi. O’z navbatida Milliy tiklanish DP, O’zbekiston Ekologik partiysi, Milliy madaniy markazlarning viloyat bo’limlari, viloyat “Nuroniy” jamg’armasi va keng jamoatchilik tomonidan ustozning insoniy sifatlari va xislatlari alohida eslandi.

Respublikada biologiya fani rivojiga ulkan hissa qo’shgan professor Abdusalom Jonibekovga yanada ilmiy-ijodiy yutuqlar tilash uchun yurtimizning turli hududlaridan ham mehmonlar tashrif buyurganligi domlaning hurmati yuksak ekanligini yana bir karra anglatdi.

Tadbir so’ngida yubilyar tashrif buyurganlarga o’z minnatdorchiligini izhbor qilib, “Umr pog’onalari” kitobini barchaga sovg’a qildi.

Qaysi xonadonda ilmu ma’rifatga e’tibor kuchli bo’lsa, o’sha oila baxt maskani hisoblanib, farzandlar ham ilmga, ma’rifatga oshno bo’ladi. Abdusalom Jonibekov o’g’il-qizlarini oliy ma’lumoti qilib yetishtirdi. Ular hozir jamiyatning turli jabhalarida elimizga xizmat qilib kelishmoqda.

**Bahrom BOYMURODOV,
Yulduz JUMABOYEVA,
GulDU Filologiya fakulteti
3-bosqich talabasi.**

uchun bu yil ilk marotaba o’tkazilmoqda.

Tanlov 3-bosqichdan iborat bo’lib, bugungacha dastlabki—tuman, shahar bosqichlari bo’lib o’tdi. Tanlovning viloyat bosqichi ham yuqori saviyada tashkil etilib, saralash bosqichlaridan o’tgan 33 nafar ishtirokchi o’rtasida 2-shart

bo’yicha bellashuv olib borildi. Birinchi yo’nalish—blits savol-javob shartida eng yuqori ballni to’plagan 20 nafar ishtirokchi keyingi turga,

ya’ni mavzu taqdimoti sharti yuzasidan bellashuvni davom ettirishdi. Hakamlar hay’ati tomonidan baho qo’yish jarayonida mavzuning taqdimot

(Boshlanishi 1-betda.)

shakllantirishdagi o’rni va ahamiyati, uni mutazam o’qish, undan bahra olish, u orqali ezgulikni, yaxshilikni o’rganish zarurligi, yoshlarning yuksak ma’naviyatli, bilimdon va barkamol bo’lishi uchun kitoblar eng yaxshi hamroh va ko’makchi ekanligi xususida gapirdilar.



Ma’naviyat olamiga chorlov

Davrada viloyat musiqali drama teatri aktyori Ibrohim Qosimov talqinida g’azal mulkining sultonni, buyuk mutafakkir Alisher Navoiy siyimosi gavdalandi. Navoiy hazratlarining ilm, kitob, ijod haqidagi durdona fikrlari, bitiklari tilga olindi.

Halima Xudoyerdiyeva nomidagi ijod maktabi o’quvchilari kitob haqidagi she’rlardan o’qidilar. Viloyat maqom ansamblı jamoasi tomonidan ijro etilgan

mumtoz ohanglar, qo’shiqlar dillarga xushnudlik bag’ishladi.

Shundan so’ng tadbir ishtirokchilarini kitob ko’rgazmalar bilan tanishdilar. Ushbu tadbir Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligining viloyat bo’limi, viloyat axborot kutubxonasi jamoasi bilan hamkorlikda tashkil etildi.

Xolida PARDABOYEVA

Suratlarda: “Kitob haftaligi” ochilish marosimidan lavhalar.

JURNALISTNING KASB ODOI VA “TARANNUM” TAQDIMOTI

(Boshlanishi 1-betda.)

bo’lsa, tamagirlik, boshqalarning qo’liga qarashga barham beriladi.

Muzokalarida so’zga chiqqan O’zbekiston Jurnalistlar uyushmasi Namangan viloyat bo’limi raisi Nosirjon Dehqonov, O’zbekiston axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi Sirdaryo viloyati bo’limi rahbari Zafar Mirrahimov, “Guliston hayoti” gazetasi bosh muharriri Bahriniso Norjigitovlar ham muammo yechimiga doir o’z takliflarini o’rtaga tashladilar.

Anjumanning ikkinchi qismi uyushma viloyat bo’limining raisi Boyjigit Abdullayevning 75 yilligi hamda “Tarannum” deb nomlangan saylanmasining taqdimotiga bag’ishlandi. Zafar Mirrahimov viloyat hokimi vazifasini bajaruvchi Erkinjon Turdimovning yubilyarga yo’llagan tabrik xatini joriyaladi va esdalik sovg’alarini topshirdi. O’zbekiston Yozuvchilar uyushmasi viloyat bo’limining rahbari Noriniso Qosimova va Alikul Xonimqulov yubilyarni qutlab, egniga o’zbekona to’n kiyazishdi.

So’ngra Sirdaryo bo’yidagi “Barxan” dam olish maskanida uch



viloyat jurnalistlari bir piyola choy ustida gurunglashdilar. Yubilyarni Xolmurod Salimov, Nosirjon Dehqonov, O’zbekiston Milliy axborot agentligining Jizzax viloyati bo’yicha muxbir Abdujalol Qayumov, “Ma’rifat va yoshlar” gazetasining bosh muharriri, shoir Alisher Nurboyev, “Sharafli yo’l” gazetasining bosh muharriri Suyun Namozov, “Yangi Sirdaryo”, “Novaya Sirdarya” gazetalarini bosh muharriri Bahrom Boymurodov va boshqalar qizg’in qutlab, Boyjigit Abdullayevning kelgusi faoliyati va ijodiga muvaffaqiyatlar tiladilar.

Muhammadali AHMAD
Tasvirlarda: tadbirdan lavhalar



Tadbir

ENG YAXSHI HUQUQ O’QITUVCHILARI ANIQLANDI

O’zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-80-soni farmonida belgilangan vazifalarni amalga oshirish borasida tizimli va manzilli ishlar olib borilmoqda. Bularning barchasi jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish, aholi va yoshlarning huquqiy savodxonligini yanada oshirib mustahkamlashdan iborat.

Bu boradagi yana bir yangi tashabbuslardan biri “Eng yaxshi huquq o’qituvchisi” tanlovidir. Adliya vazirligi hamda Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi o’rtasidagi qo’shma qarorga asosan ushbu tanlov umumiy o’rta ta’lim maktablarining huquq fani o’qituvchilarini



asosida yoritilishi, uning mavzu yuzasidan huquqiy bilimlari darajasi, shu bilan birga o’qituvchining notiqlik mahorati ham inobatga olindi.

Yakuniy natijalarga ko’ra, 1-o’rinni Guliston shahar 1-umumiyo’rtta ta’lim maktabi o’qituvchisi Maftuna Abdusalomova, 2-o’rinni Xovos tumanidagi 1-umumiyo’rtta ta’lim maktabi o’qituvchisi Dilshod Urumbayev, 3-o’rinni Mirzaobod tumanidagi 1-IDUM o’qituvchisi Jahongir Asqarov egalladilar.

G’oliblarga viloyat adliya boshqarmasining diplomi va sovg’alari topshirildi.

Dilnoz UMURZOQOVA,
viloyat adliya boshqarmasi mas’ul xodimi

• Mahalladan maydonga, orzudan marraga!

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tomonidan 2019-yil mart oyida ilgari surilgan Besh muhim tashabbus mamlakatimiz yoshlarining har tomonlama rivojlanishi, bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish va ijtimoiy faolligini oshirishda tub burilish yasadi. Mazkur tashabbuslar jamiyatda madaniy-ma'rifiy muhitni mustahkamlash, yoshlarni sog'lim hayot tarziga jalb etish, zamonaviy bilim va texnologiyalar bilan qurollantirish, xotin-qizlar bandligini ta'minlash va kitobxonlik madaniyitini yuksaltirishni o'z ichiga olgan keng ko'lamli islohotlar tizimidir.



"BESH TASHABBUS" OLIMPIADASI – G'URUR, G'ALABA VA YUKSALISH SARI YO'L

Ayni kunlarda "Besh tashabbus olimpiadasi" O'zbekistonning barcha hududlarida keng qamrovli sport tadbirdilari va musobaqalarini tashkil etish orqali yoshlar o'rtasida jismoniy tarbiya va sportni rivojlanirishga qaratilgan muhim tashabbusdir. Ushbu yilgi mavsumda bir qator yangiliklar va kengaytirilgan ishtirot imkoniyatlari taqdirm etilmogda. 2025-yilda "Besh tashabbus olimpiadasi"da ishtirotchilar soni sezilarli darajada oshdi. Birgina o'tgan yilgi o'zida 23 ming nafardan ziyo'd yoshlearning besh bosqichli sport musobaqalarida ishtirot etishi sportga bo'lgan qiziqishni yanada oshirdi. Bu yilgi musobaqalar yoshlar uchun yangi imkoniyatlар eshigini ochadi, mahallalar va sport murabbiylari uchun esa championlarning yangi avlodini katta sport maydonlariga kuzatish imkonini yaratadi.

Musobaqalar turli yosh guruhlari va toifadagi ishtirotchilar uchun mo'ljalangan: Mahalla yoshlari – 13 ta sport turi bo'yicha 5 bosqichda nogironligi bo'lgan yoshlar – adaptiv sport turlari bo'yicha 3 bosqichda, umumta'lim maktab o'quvchilari – 9 ta sport turida 3 bosqichda professional ta'lim muassasalari

o'quvchilari – 5 ta sport turi bo'yicha 3 bosqichda talabalar – 5 ta sport turi bo'yicha 4 bosqichda umumta'lim maktab o'quvchilari – "Sog'lim tanda sifatlari ta'lim" shiori ostida 3 bosqichda idora va tashkilotlar xodimlari – 5 ta sport turi bo'yicha musobaqalar o'tkaziladi.

Ta'kidlash joizki, "Besh tashabbus olimpiadasi"ning joriy yilgi mavsumida birinchi marotaba mahallalardagi 30 yoshdan katta bo'lgan aholi o'rtasida sportning mini futbol, voleybol, stribol, stol tennis, vorkaut, shaxmat va shashka turlari bo'yicha 3 bosqichli musobaqalar ham tashkil etiladi. Tumanimizda "Besh tashabbus" olimpiadasi yil sayin katta ishtiyoq, ko'tarinki ruh va keng qamrov bilan o'tkazilib, yoshlar orasida sog'lim turmush tarzini shakllantirish, sportga bo'lgan qiziqishni oshirishda muhim omil bo'lmogda.

Ishonamizki, "Besh tashabbus olimpiadasi" 2025-yilgi mavsumi ham yoshlar o'rtasida jismoniy tarbiya va sportni rivojlanirish, har bir ishtirotchiga o'z qobiliyatini namoyon etish imkonini yaratadi.

N. ABDULLAYEVA,
Guliston tumani Yoshlar
ishlari bo'limi
bosh mutaxassisi

Statistik ma'lumotlar shuni ko'rsatmoqdaki, hozirgacha eng ko'p sodir etilgan korruption jinoyatlar mazmunini poraxo'rlik, tovlamachilik, firibgarlik, valyuta qoidasini buzish, qalbaki pul yasash va o'tkazish, o'zlashtirish yo'li bilan talontaroj qilish jinoyatlari tashkil etilmogda. Afsuski, ko'plab insonlarning ongida korrupsiya oddiy hodisa sifatida qabul qilinadi.

KORRUPSIYA— TARAQQIYOT KUSHANDASI

Korrupsiyaning yuzaga kelishiga ko'plab sabablar ta'sir etib, bularga fuqarolarning past huquqiy madaniyati hamda korrupsiya qarshi tizimga bo'lgan ishonchszilik kiradi. Shubhasiz, shaxsiy huquq va erkinliklarni ta'minlash, qonunlarning ta'sirchanligini va ustuvorligini oshirish, huquqburarliliklar bilan kurashish bo'yicha maqsadli harakatlarni amalga oshirish muhim hisoblanadi. Korrupsiya qarshi kurashning barcha shakllarida tizimli ish olib borish hamda huquqiy mexanizmlarni takomillashtirish barcha darajadagi davlat hokimiyyati organlarning ustuvor vazifasidir. Korrupsiya jinoyatlarning 75 foizi

tuman va mahallada maishiy korrupsiya shaklida sodir etilayapti. Shu bois endi Korrupsiya qarshi kurashish hududiy kengashlari tarkibi to'liq yangilanadi. Ularga viloyat xalq deputatlari kengashi raislari bosh bo'ladi. Albatta, bunday muhim Kengashga xalq vakili bo'lgan deputatlarning rahbarlik qilishi joylarda korrupsiya bilan bog'liq holatlar nazoratini yanada kuchaytirishga xizmat qiladi.

Har bir deputat o'z hududida bu boroda muntazam nazorat olib borishi uchun qonunchilikda barcha huquqiy imkoniyatlari yaratib berildiki, endilikda Kengashlar har chorakda kamida bitta sohada korrupsiya omillarni

• Ogoh bo'lgan yaxshi

ZILZILA VA UNING OQIBATLARI

Zilzila, yer qimirlashi — yer po'stida yoki mantiyaning yuqori qismida to'satdan siljish, sinish yoki o'pirilish ro'y berishi oqibatida vujudga keladigan va to'lqinsimon tebranishlar tarzida uzoqlarga tarqaladigan yer osti silkinishlari va tebranishlari. Sabablariga ko'ra, tektonik, vulqoniylar o'pirilish zilzilalariga bo'linadi. Yer po'stining har xil chuqurligida tabi kuchlar ta'sirida sodir bo'ladigan silkinishlar "tektonik zilzilalar" deyiladi.

Bir yil davomida bir necha marotaba zilzila yuz berishi mumkin. Ularning aksariyati faqatgina seysmograflar sezadigan kuchsiz zilzilalar bo'lib, odamlar sezadiganlari bir necha mingga yetadi, vayronkor yer silkinishlari esa bir yilga bir necha o'ndan bir necha yuztagacha bo'lishi mumkin.

Viloyatimiz hududida 5,6,7,8,9 qavatlari uylar qurilmoqda. Xususan, barcha shahar, tumanlarda qurilayotgan baland qavatlari uylar bitqazilib, fuqarolarga foydalanishga topshirilayotganda viloyat hokimligi komissiyasi a'zolari hamkorligidagi viloyat Qurulish va uy-joy komunal xo'jaligi sohasida nazorat qilish inspeksiysi, viloyat Qurulish boshqarmasi xodimlari bilan birlgilikda maxsus tekshiruv apparatlari bilan zilzila bardoshliligi, necha ballaga

chidamlilagini tekshiruvdan o'tkaziladi.

Guliston shahar "Taraqqiyot", "Sayqal", "Yangi hayot" va "Bo'ston" mahallalarida qurilayotgan 5,6,7,8,9 qavatlari uylarning seysmik zilzilaga bardoshliligi hamda qurilish jarayonlari, uylarning poydevori mustahkamligi, qurilish mahsulotlari talab darajasida bo'layotganligi, fuqarolarimizning xavfsizligini ta'minlash maqsadida komissiya a'zolari bilan va tadbirkorlarning uy joylarni vijdoran qurayotganligi bo'yicha o'rganishlar o'tkazilmoqda.

Zilzila vaqtida birlamchi qoida bu — vahimaga tushmaslikdir. Agar bino ichida bo'lsangiz, stol yoki stul tagiga kirib oling. Shu yo'l bilan tepadan qulashi mumkin bo'lgan narsalardan



(masalan, devor parchasidan himoyalanasiz. Eshik tagida (eshik joylashgan oralida) turish lozim — ular binoning boshqa qismlariga qaraganda mustahkamroq bo'ladi. Agar tashqarida bo'lsangiz, bino, daraxt, suv yoki elektr simlariga yaqin bormang. Elektr uzatkichlari suvg'a qulashi natijasida unga yaqin turganlar uchun o'ta xavfli vaziyatni yuzaga keltirishi mumkin. Mashinada bo'lsangiz, mashina ichidan chiqmang, lekin bino, devor yoki boshqa qulashi mumkin bo'lgan obyekt yaqinida turgan bo'lsa, tashqariga chiqib, avtomobilning yonida cho'kkalab turing. Zilzila to'xtaganidan keyin ham xavfsiz joydan chiqmasdan biroz kutib turish lozim.

J. ESHMO'MINOV,
viloyat FVB T va TXFVB
bosh inspektori,
katta leytenant

Inson qadri ulug'

ISTE'MOLCHI MUAMMOSI HAL QILINDI

O'zbekiston Respublikasi Raqobatni rivojlanirish va iste'molchilar huquqlarini himoya qilish qo'mitasi viloyat hududiy boshqarmasiga Boyovut tumanida istiqomat qiluvchi fuqaro J.Sh.ning murojaati kelib tushdi.

Fuqaro o'z murojaatida "Uzum nasiya" orqali xarid qilgan mobil telefon uchun to'lovlarini to'liq to'laganligini, biroq bugungi kunda fuqaroning nomida 200 ming so'm miqdorida qarzdorlik kelib chiqayotganligini ta'kidlab, asossiz qarzdorlik o'zining hisobidan o'chirib berilishi yuzasidan amaliy yordam berilishini so'ragan edi.

Murojaat yuzasidan hududiy boshqarma mas'ullari tomonidan "Uzum nasiya" ("Shaffo molija" MCHJ) sotuvchilariga "Iste'molchilar huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi qonun

talablari hamda mazkur qonun talablariga q'a'tiy amal qilinishi lozimligi yuzasidan tushuntirishlar berildi. Natijada fuqaro nomiga asossiz kelib chiqayotgan 200 ming so'm miqdordagi qarzdorlik uning hisobidan o'chirib berilishi ta'minlandi va iste'molchining buzilgan huquqlari tiklandi.

A.YUSUPOV,
viloyat Raqobatni rivojlanirish va
iste'molchilar huquqlarini himoya qilish
boshqarmasi mutaxassis

bartarf etish, qonun ustuvorligi, jazo muqarrarligini ta'minlash bo'yicha Milliy kengashga taklif kiritib boradi. Hududiy kengashlar korrupsiayiv omillarni aniqlab, ularga barham berish uchun qonunchilikni o'zgartirish, jazo muqarrarligini ta'minlash uchun ham Milliy kengashga o'z takliflarini kiritishadi. Shuningdek, Oliy Majlis Qonunchilik palatasidagi partiya fraksiysi ham korrupsiya oid qonunchilikka o'z takliflarini kiritib boradi.

Korrupsiya—taraqqiyot kushandas, xavfsizlikka tahdid tug'diruvchi jinoyat. Bu illatga qarshi kurashish tegishli organlarningina emas, barchanining ishi bo'lishi zarur. Bu illat faqat jazolar orqali to'xtab qolmaydi, balki uni keltirib chiqarayotgan sabablarni bartarf etish muhim. Aynan shu nuqtai nazardan fuqarolik jamiyatni institutlari, ommaviy axborot vositalari va keng jamoatchilikning ushbu jarayondagi ishtirotini kuchaytirish zarur. Biz korrupsiya qarshi kurashishni faqat davlat siyosati darjasida emas, balki ijtimoiy ong darjasida ham mustahkamlashimiz lozim. Ana shundagina jamiyatda haqiqat va halollik tamoyillari qaror topib va qonun ustuvorligi ta'minlanib, adolatli va rivojlangan davlatni barpo etamiz.

Jamol KOMILOV,
"Adolat" SDP viloyat Kengashi raisi



CHEGARADAGI MAKTABDA BIR KUN

Xovos tumanidagi 3-umumi o’rta ta’lim maktabi shundoq O’zbekiston va Tojikiston chegarasida joylashgan. 300 metr narida chegara to’sinlari ko’zga tashlanib turadi. Yangi o’quv yili mazkur maktab uchun esda qolarli voqeal bilan boshlandi. Pudratchi tashkilot “WORKERS INTEPRISE” MCHJ tomonidan ta’lim maskani kapital ta’mirdan chiqarildi. Maktab to’liq o’quv va laboratoriya jihozlari, mebellar bilan ta’minlandi. O’qituvchilarining yayrab-yashnab saboq berishlari, o’quvchilarining risoladagidek bilim olishlari uchun barcha shart-sharoitlar yaratildi.

—Hukumatimizning g’amxo’rligidan ruhlanib, butun e’tiborni ta’lim sifatini yaxshilashga qaratayapmiz, — deydi maktab direktori Ulug’bek Xoliqnazarov. — Darslar va sinfdan tashqari yumushlar zamon talablari darajasida tashkillashtirilmoqda. Ayni kunnarda maktabda “Buyuk ajodolar merosini o’rganish” oyligi o’tayotgan ekan. Maktab direktorining ma’naviy-ma’rifiy ishlari bo’yicha o’rinbosari Abdusamat Isoqov bizni bir xonaga boshladи. Xona to’ridagi kattakon monitorini elektr manbaiga uladi. Ko’p o’tmay oylik doirasida tashkillashtirilgan tadbirdilar xuddi kinolentasidagidek jonlana boshlaди. Sohibqiron bobomiz Amir Temur hayoti va faoliyatiga bag’ishlangan tadbirdagi bilimdonlar bellashuvni, sahna



Ta’lim

ko’rinishlari, sport musobaqalaridan lavhalar, “Kitobxonlik — baxtli hayot omili” mavzusidagi haftalikdan olingan suratlar bizda ajib bir taassurot uyg’otdi. Oylikning keyingi haftalarida milliy urchodalar, san’at va hunarmandchilik haqida diltortar tadbirdilar o’tkazilishi rejalashtirilganidan voqif bo’ldik.

Bozor iqtisodiyoti davrida manfaatdorlik birinchi planga chiqmoqda. Ana shuni hisobga olib joriy o’quv yilidan “Kitobxon maktab” tanlovida g’olib chiqqan o’quvchilarga ilk marta pul mukofotlari ta’sis etilibdi. 5-6, 7-8-sinflardan mazkur loyihaning sinf bosqichi yakunlanibdi. Ayni paytda 9-10-11-sinf o’quvchilari o’rtasida kitobxonlik bahsulari bo’lib o’tmoqda. Tanloyda 1, 2 va 3-o’rinlarni egallagan o’quvchilarga mos ravishda 500 000, 300 000 va 200 000 so’mdan pul mukofotlari berilishadi.

Maktab kutubxonasida bir guruh yuqori sinf o’quvchilari bilan gurunglashdir. Ular keyingi paytlarda kutubxona fondi badiiy adabiyotlar hisobiga boyib borayotganligini ochiqlashdi.

U.Xoliqnazarovning shahodat berishicha, ikki yildan buyon o’qituvchilar o’rtasida ham “Kitobxon ustoz” tanlovini

o’tkazish an’anaga aylanibdi. O’tgan o’quv yilida I toifali o’qituvchi Munavvar Jumayeva ushbu maqomga noil bo’libdi. Maqsad ustozi larning ibratini shogirdlarga ko’z-ko’z qilishdir. Zero, qovun qovunni ko’rib, rang oladi, degan maqol bor-ku!

Maktabda bo’lgan kunimiz 8-11-sinf o’quvchilari o’rtasida “Zakovat” klub bilimdonlarining bellashuvni bor ekan: taklif qilishdi. Faollar zalida 4 ta jamoa jamuljam bo’ldi. Jamoa a’zolari monitorida o’zlarini tanlagan raqamdagagi savollarga javob qidirib, boshlarini bir-biriga qo’yib, bahslasha ketishdi. Bellashuvni kuzatib, ancha bilim oldik. Pirovardida Kumush Abdauazizova sardorligidagi 8”a”-sinfning “Munosib avlod” jamoasi g’olib chiqdi.

— “Zakovat” klubini tashkil etganimizga uch yil bo’ldi, — deydi U.Xoliqnazarov. — Klubga fizika o’qituvchisi Anvar Umarov rahbarlik qiladi. Savollar asosan 5 ta muhim fan bo’yicha tayyorlanadi. Vaqt keldi. Endi qo’shni maktablarning bilimdonlari bilan ham bellashsak bo’ladi. “Zakovat” dan zavqlanib, zalgal chiqqanimizda maktab

rahbari bizni bir ustozi bilan tanishtirdi. Oliy toifali tarix fani o’qituvchisi Botir Hayitov “Yil o’qituvchisi-2017” tanlovinining respublika bosqichida faxrli 2-o’rinni egallagan ekan. Gurungimiz ancha qo’r oldi. Maktab direktori ta’lim muassasasining ilg’or o’qituvchilari, oliy toifali ustozi Nasiba Xushvaqtova, Gulnora To’ychiyeva, Baxtiyor Eshqo’ziyevlarning nomlarini hurmat bilan tilga oldi.

Maktabda 487 nafar o’g’il-qiz tahsil oladi. Ulardan 171 nafari, ya’ni 28 foizdan ko’proq’i montazam ravishda sport bilan shug’ullanadi. Bu ko’rsatkich maktab rahbariyatini qoniqtirmayapti. Ayni choqda ta’lim maskanida shaxmat-shashka, voleybol, basketbol, stol tennisi to’garaklari ishlab turibdi. Barcha qulayliklarga ega sport zali o’quvchilar xizmatida. Ikki nafar oliy ma’lumotli jismoniy tarbiya o’qituvchisi yosh sportchilar bilan montazam shug’ullanmoqda. Oz bo’lsa-da, quvonarli yutuqlar ham bor. “Besh

tashabbus olimpiadasi”ning tuman bosqichida tennischilar 1-, shaxmatchilar 2-o’rinni egallashibdi. Maktab o’quvchilarining 98 foizi “Alpomish va Barchinoy sinovlari”da muvaffaqiyatlari ishtirot etibdi.

— Boshqarmamiz boshlig’i Prezidentimiz bilan muloqot chog’ida sport bilan montazam shug’ullanuvchi o’quvchilar sonini keskin ko’paytirishga so’z berdilar, — deydi oliy toifali jismoniy tarbiya o’qituvchisi B.Eshqo’ziyev. — Biz ham mazkur yo’nalishda jiddiy o’zgarishlar qilishga chog’lanib turibmiz.

O’z bag’riga 39 nafar ustozi birlashtirgan pedagogik jamoa ta’lim-tarbiya sifatini zamon talablari darajasiga ko’tarish yo’lida timay izlanmoqda. Bu borada chegarada joylashagan maktab jamoasingning izlanishlari chek-chegara bilmaydi.

M. AHMEDOV

Tasvirlarda: maktab hayotidan lavhalar.

O’ZBEKI ZO’RAKIMI?

yoki To’ra Sulaymon uy-muzeyi faoliyatini arosatda goldirgan mutasaddilarning qulog’ini cho’zib qo’yadigan vaqt kelmadimi?

Felyeton

Keyingi paytlarda bilda bir qusur urchib borayapti. Ya’ni hali foydalanishga tayyor bo’lmagan chala obyektlarni “Ura, ura”chilik bilan topshirish kasalligi gazaklagandan gazaklamoqda. Bunga Mirzaobod tumanida qad rostlagan O’zbekiston xalq shoiri To’ra Sulaymonning uy-muzeyi yaqqol misoldir. Hukumat qaroriga binoan uy-muzey 2022-yilning dekabi oyida foydalanishga topshirilishi kerak edi. Biroq buyurtmachi tashkilot viloyat Injiniring kompaniyasi hamda bosh pudratchi “Boyovutlik Islombek Trans” MCHJning sustkashligi tufayli obyekt

qurilishi achchiq ichakdek cho’zilib ketdi. Oradan roppa-rosa ikki yil o’tib, 2024-yilning dekabr oyida asasayu dabdaba bilan uy-muzey ochildi. Obyektning ochilish marosimiga mamlakatimizning turli regionlardan izzatlari mehmonlar tashrif buyurdilar.

Ammo, lekin, biroq... Uy-muzey foydalanishga topshirilganda keyin dumy xurjunda muammolar shundoq ko’zga tashlandi qo’ydi. Buyurtmachi tashkilot viloyat Injiniring kompaniyasi haligacha foydalanishga topshirish akt (hujjat)ini rasmiylashtirishni orqaga



cho’zib kelmoqda. Bu shoir uy-muzeyi hukumat tomonidan rasman qabul qilinmadi, degani. Viloyat Moliya boshqarmasining ma’lumotnomasida ko’rsatilishicha, To’ra Sulaymon uy-muzeyini rekonstruksiya qilish, shoir haykali podstamentini barpo etish uchun viloyat hokimi (sobiq) Farmoyishi bilan 2 milliard so’m miqdorda mablag’ ajratilgan edi. Biroq bosh pudratchi “Boyovutlik



Islombek Trans” MCHJ shoir haykali muallifi, taniqli haykaltarosh, O’zbekiston Badiiy akademiyasining akademigi Azamat Xatamovga haykal xarajatini qoplashdan qolgan 602 million so’m miqdordagi mablag’ni halihamon uzganicha yo’q. Akademik haykaltarosh mehnat haqini so’rayverib, og’zi oqyem bo’lib ketdi.

Dard ustiga chipqon, deganlaridek, bosh pudratchining qarzdorligi

tufayli shoir uy-muzeyi elektr manbaidan uzib qo’ylgan. Boz ustiga, uy-muzeyning konferens-zali, muzej xodimlari faoliyat olib boradigan xonalarini jihozlash oxiriga yetkazilmagan. Xalqimizning dardu quvonchlarini kuylagan xalq shoirining uy-muzeyini aybdorlarning qulog’ini cho’zib qo’yadigan vaqt keldi, shekilli. A, labbay!!!!

Muhammadali AHMAD

Elga xizmat – oliv himmat

Munira o’zi xizmat ko’rsatadigan hududdan xonadonlarda istiqomat qiluvchi keksa yoshdagi kishilardan yoki bermorlardan har gal “rahmat” eshitiganida hamshiralik kasbini tanlaganidan xursand bo’lib ketadi. Uning hamkasblari orasida o’z o’rnii va hurmati bor. U Guliston tibbiyot kollejini hamshiralik ishi mutaxassisligi bo’yicha tugatib, 2012-yili ish faoliyatini Guliston shahar ko’p tarmoqli markaziy poliklinikada dahan hamshirasi vazifasida boshlagan edi. Har



Fidoyi hamshira

kuni xonadonlarga kirib, oilaning har bir a’zosi salomatligi bilan qiziqar, ayniqsa, keksalar va homilador ayollarga alohida e’tibor berardi. Ularni o’z vaqtida tibbiy ko’rikdan o’tishlari, sog’ligida sal muammo bo’lsa, darhol shifokor qabuliga borishlarini uqtirardi. Ana shu e’tiborliligi va o’z vazifasini a’lo darajada ado etganligi bois daha aholisi uni o’z yaqiniday ko’rib, murojaat qiladigan bo’lishdi.

Mana, 13 yildirki, u tibbiy brigada amaliyotchisi vazifasida ishlab kelmoqda. Endi zimmasidagi mas’uliyat yanada kuchaygan, yuklatilgan vazifalarni o’z vaqtida bajarib kelmoqda. Jamoat ishlarida ham faol qatnashadi. U o’ziga nisbatan talabchan, muntazam ravishda bilim va mahoratini oshirishga intiladi. Tibbiyotga oid yangi qo’llanmalar, kitob va jurnallarni o’qib, bilimini oshirib boradi. U jamoada yaxshi targ’ibotchi. Yangi mavzular bo’yicha o’zi ishlaydigan poliklinikada hamda boshqa tibbiyot muassasalarida o’tkazilgan seminar va konferensiyalarda faol qatnashib, tajriba va mahoratini hamkasblari bilan o’rtoqlashadi, bilmaganlarini ustozlaridan so’rab, o’rganadi va amalda qo’llaydi.

Zamon talabiga qarab tibbiyot tez rivojlanmoqda. Sohada yangi loyihibar ishlab chiqilib, amaliyotda qo’llanilmoqda. Bu albatta, o’rta tibbiyot xodimlaridan chuquq bilim va malaka talab etadi. Munira Hasanova 2020-yili “Aholi salomatligini mustahkamlash va ularga patronaj xizmatini ko’rsatish”, 2021-yili “Birlamchi tibbiy sanitariya yordami muassasalarida aholiga maqsadli patronaj xizmatini ko’rsatish va sog’lom turmush tarzini rivojlantirish”, “O’rta tibbiyot va dorishunos xodimlarning malakasini oshirish va ixtisoslashtirish”, shuningdek, “Tibbiyot brigadasi hamshiralari, oilaviy shifokorning hamshirasi, oila patronaj hamshirasi va patronaj doyasi” mutaxassisligi bo’yicha, “Aholi orasida emlash masalalarini joriy etish va qamrovni kengaytirishda shaxslararo muloqot ko’nikmalarining ahamiyati”, shuningdek, “Yurak qon tomir kasalliklari profilaktikasi, ularni erta aniqlash va parvarishlash”, “Birlamchi tibbiy sanitariya yordami muassasalarida profilaktik ko’riklarni tashkil etish” mavzularida o’z malakasini oshirganligi hamshiraning yanada

keng qamrovli faoliyat yuritishiga yordam berdi.

O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 7-iyuldagagi “Qoraqalpog’iston Respublikasida 2022-2024-yillarda aholi salomatligini muhofaza qilishni yanada kuchaytirish to’g’risida”gi 310-soni qaroriga ko’ra, davlat tibbiy sug’urtasi tizimini o’z vaqtida sifatli joriy qilinishini yo’lga qo’yish maqsadida Qoraqalpog’iston Respublikasi tibbiyot muassasalarini xodimlarini tibbiy yordamning yangi modeli bo’yicha amaliy bilim va ko’nikmalarini oshirishda o’z hissasini qo’shdi. Ana shu sa’y-harakatlar o’z samarasini berdi. Munira Guliston shahar tibbiyot birlashmasiga qarashli muassasalarining o’rta tibbiyot xodimlari o’rtasida o’tkazilgan tanlovda “Eng yaxshi tibbiy brigada hamshirasi” nominatsiyasi bo’yicha g’oliblikni qo’lga kiritган.

Munira yosh bo’lsa ham kasbiga mehri, bilimdonligi, o’z ustida timmay ishlashi, yangilikka o’chligi bilan hamkasblari o’rtasida ajralib turadi. Shu bois u Qoraqalpog’iston Respublikasi tibbiyot muassasalari tibbiyot xodimlarini tibbiy yordamning yangi modeli bo’yicha amaliy bilim va ko’nikmalarini oshirishda faol qatnashdi va o’z tajribasini hamkasblari bilan o’rtoqlashdi, — dedi ustoz, Guliston shahridagi 4-oilaviy poliklinika oliy toifali hamshirasi, viloyat sog’liqi saqlash tizimining bosh amaliyotchi hamshirasi Nargiza Primkulova.

Ha, ustozdan bunday e’tirof eshitish hammaga ham nasib etavermaydi. Munira ayni paytda o’rta tibbiyot xodimlari o’rtasida o’tkaziladigan ko’rik-tanlovnинг viloyat bosqichiga jiddiy hozirlik ko’rmoqda.

Munira oilada sarishta, qo’li gul beka, mehribon ona, bo’sh paytalarida kitob o’qishni, turli pishiriqlar pishirishni suyadi. Bir nafar farzandi bor. U Guliston shahridagi ixtisoslashtirilgan san’at muktabida tahsil oladi. Jonkuyar hamshira “Bo’ston” mahallasidagi o’ziga biriktirilgan ko’pqavatlari uylardagi ikki mingdan ziyod aholiga xizmat qilib, olqish olib kelmoqda.

Bilim, tajriba va malaka har qanday sohadagi mutaxassisiga turli sinovlarda qo’l keladi, uni yetuklikka olib chiqadi. Munira ana shu yetuklik sari intilmoqda.

Xolida PARDABOYEVA

Ayolni e’zozlash, ayolga ehtirom ko’rsatish xalqimizga xos olijanob qadriyat hisoblanadi. Biz, barchamiz qanday kasb, qanday lavozimda ishlamaylik, qalbimiz, yuragimizdagi jamiki ezgu fazilatlar uchun siz, mehribon ayollardan umrbod qarzdormiz.

Yer yuzidagi har qaysi jamiyatning madaniy darajasi uning ayollarga bo’lgan munosabati bilan belgilanadi.

Shavkat MIRZIYOEV

E’tibordagi mavzu

Ayolni asrang, qadrlang, unga ozor bermang... Bu kabi iltijoli, Ada’vatli so’zlarni turli nashrlarning sahfalarida, ko’plab ijtimoiy tarmoqlardagi e’lon qilinayotgan ayolga jabr yetkazilgani, xo’rlangani, uning huquqlari poymol etilgani haqidagi xabar va ma’lumotlarni ko’p uchratamiz. Ayol va erkakning huquqlari teng bo’lgan bir zamonda nega bunday noxush holatlar ro’y bermoqda? Huquq-tartibot idoralari, mahallalar vakillari, ruhshunoslar (psixologlar, qolaversa, keng jamoatchilik tomonidan o’rganilganda, bunday holatlar, vaziyatlar kelib chiqishining sababları yaqqol namoyon bo’lmoqda. Aksariyat hollarda oilaviy muammolar, er-xotin, qaynona-kelin yoki boshqa qarindoshlar o’rtasidagi kelishmovchiliklar, ichkilik, giyohvandlik, xiyonat... va hokazolar ayolning xo’rlanishi yoki tazyiqqa uchrashiga olib keladi.

Ayolni asrang...



shartnomasi asosida jalg qilinadi.

Bulardan tashqari, xotin-qizlarni kasb-hunarga o’rgatish, ularga hududdagi monomarkaz va kasb-hunarga o’qitish markazida kasbga o’rgatish uchun yo’llanmalar beriladi. Ularni ish bilan ta’minlash davrida voyaga yetmagan farzandlariga tashkil etilgan “Birlamchi ko’mak” xonalari orqali profilaktika inspektori tomonidan olib kelinib, markazning vaqtinchalik yotoqxonasiga joylashtiriladi.

Jabrlangan xotin-qizlar

va ularning voyaga yetmagan farzandlariga shu kunning

o’zida ijtimoiy xizmat

ko’rsatish shartnomasi

imzolaniadi. Besh ish kuni

ichida xotin-qizlarning

holati hududiy markazning

ijtimoiy xodimi, huquqshunos

va psixolog ishtirokida

multidissiplinar dastur ishlab

chiquilib.

Hududiy markaz

tomonidan xotin-qizlar va

ularning voyaga yetmagan

farzandlariga yakka tartibdagi

ijtimoiy reabilitatsiya

dasturiga muvofiq bir qator

xizmatlar ko’rsatiladi.

Jumladan, tibbiy, psixologik,

ijtimoiy, huquqiy va boshqa

xizmatlar ko’rsatiladi,

voyaga yetmagan bolalarni

esa eng yaqin hududdagi

maktabgacha yoki o’rta ta’lim

muassasalariga vaqtinchalik

joylashtirish masalasi hal

etiladi.

Xotin-qizlarga zarur

bo’lgan hollarda suisidolog,

psixoterapevt, bolalar

psixologi, tibbiy ruhshunoslar

va boshqa mutaxassislar

hunarga yo’naltirish bo’yicha viloyat monomarkaziga jalg etilganligi, 3 nafar ayolning ish bilan bandligi ta’minlanganligi hamda bir nafar ayolning tadbirkorlikka yo’naltirilganligi markaz tomonidan olib borilgan sa’yrarakatlarning samarasini ko’rsatadi. Eng quvonarlisi, u yerdagи bolalarning mehr qurshovida ekanligidir.

Ular onalari ish yoki hunar o’rganish bilan band bo’lganlarda maktablar va MTTlarda bilim olib, tarbiyalanadilar. Markazda vaqtincha yashayotgan ayollarning vaqtini mazmunli va maroqli o’tkazish maqsadida yotoqxonada madaniy-ma’rifiy tadbirlarni tashkil etish ham ko’zda tutilgan.

Ijtimoiy himoya milliy agentligi huzuridagi ayollarni reabilitatsiya qilish va moslashtirish Sirdaryo viloyati hududiy markaziga 2024-yil davomida tazyiq va zo’ravonlikdan jabrlangan 113 nafar xotin-qizlar va 109 nafar voyaga yetmagan bolalar joylashtirilgan. Ularga 305 ta psixologik, 159 ta yuridik va 101 ta ijtimoiy xizmatlar ko’rsatilgan.

2025-yil birinchi choragi davomida esa tazyiq va zo’ravonlikdan jabrlangan 15 nafar ayol va ularning 15 nafar voyaga yetmagan farzandlariga joylashtirilgan hamda barchasiga tegishli psixologik, yuridik va ijtimoiy xizmatlar ko’rsatilgan. Ayniqsa, 10 nafar ayol markazdagi o’quv kurslariga, 4 nafar ayol kasb-

etilganligi tahsinga loyiq.

Ushbu markazda o’tgan davr xotin-qizlarning hayotida yaxshi taassurotlar qoldirishi shubhasiz. Ular bu yerdan uylariga qaytganlarida o’zlarining jamiyat uchun kerakli insonlar ekanliklarini, hayot juda go’zal ekanligi, mazmunli yashab, mehnat qilib, uning qadriga yetish kerakligini anglab yetadilar.

Nilufar ABDUSAIDOVA, ayollarni reabilitatsiya qilish va moslashtirish Sirdaryo viloyati hududiy markazi mas’ul xodimi.
Feruza UMATOVA, markaz psixologi.

• Jarayon

Mamlakatimizda xalq manfaati, inson qadri va adolat tamoyillarini ulug'lash yo'lida tizimli islohotlar izchil amalga oshirilmoxda. Xususan, 2024-yil 5-avgust kuni imzolangan "O'zboshimchalik bilan egallab olingan yer uchastkalariga hamda ularda qurilgan binolar va inshootlarga bo'lgan huquqlarni e'tirof etish to'g'risida"gi qonun yurtoshlarimiz uchun katta quvонch va imkoniyatlar eshigini ochdi. Mazkur qonun orqali fuqarolar o'zlarining uzoq yillardan beri yashab kelayotgan xonadonlarini hujjatlashtirish, ya'ni o'z uy-joylariga nisbatan qonuniy egalik huquqiga ega bo'lish imkoniyati yuzaga keldi. Bu esa "Inson qadri uchun" tamoyilining amaldagi ifodasi, desak, mubolag'a bo'lmaydi.

MULK HUQUQIGA KIMLAR EGA BO'LISHI MUMKIN?

Kadastr agentligi viloyat boshqarmasi boshlig'i Shavkat Ro'ziqulovning ta'kidlashicha, bugungi kunda viloyatda mazkur qonunni amalga oshirish yuzasidan keng ko'lamli ishlar olib borilmoqda. Jumladan, 54 nafar kadastr xodimlari tomonidan tasdiqlangan reja-grafikka asosan mahallalarda uyma-uy xatlov ishlari tashkil etilgan.

Qonun rasman kuchga kirgan kundan boshlab, ya'ni 2024-yil noyabr oyidan yil yakuniga qadar 29 ta mahallada xatlov ishlari yakunlangan bo'lsa, 2025-yil davomida esa yana 106 ta mahallada bu jarayonlar amalga oshirilishi belgilangan. 2025-yil 14-aprel holatiga ko'ra, 33 ta mahallada 8 712 ta uy-joy xatlovdan o'tkazilib, shundan 1 518 tasi "E'TIROF" AAT dasturiga kiritilgan. Mazkur dastur doirasida obyektlar tegishli vaziflik va idoralar tomonidan ikki oy muddatda ko'rib chiqiladi va jamoatchilik muhokamasiga taqdim etiladi.

Muhokama jarayonlaridan so'ng xalo deputatlari viloyat Kengashi tomonidan tasdiqlanadi va obyekt egalar qonuniy ravishda mulk huquqiga ega bo'ladi. Ayni paytda ijobji xulosa

olingoing bir qator uy-joylar muhokama bosqichida bo'lib, ya'qin orada ularning huquqiy maqomi rasman e'tirof etilishi kutilmoqda.

Albatta, bu boradagi ishlar yurtimizning barcha hududlarida olib borilayotgan bo'lsa-da, ba'zi holatlarda muayyan qiyinchiliklar ham kuzatilmoqda. Jumladan, xonadon egalarining uyda bo'imasligi, zarur hujjatlarini o'z vaqtida taqdim etmaslik yoki kechroq kelishimi aytilib ishchi guruhn qayta-qayta chaqirish holatlari jarayonlarni sekinlashtirmoqda. Buning natijasida bir mahallada xatlov ishlari to'liq yakunlanmasdan boshqasiga o'tishning imkonii bo'lmay qolmoqda.

Shu o'rinda viloyatimiz aholisi, xususan reja-grafik asosida xatlov o'tkazilishi belgilangan mahalla fuqarolaridan o'z vaqtida uylarda bo'lishlari va kerakli hujjatlarini tayyor holda taqdim etishlarini so'rab qolamiz. Bu ham nafaqat davlat siyosatini qo'llab-quvvatlash, balki o'z konstitutsiyaviy huquqlarini amalga oshirish yo'lida muhim qadamdir.

Kadastr agentligi viloyat boshqarmasi Axborot xizmati

KITOBLAR SOVG'A QILINDI

Viloyat II Buning 2025-yil 1-aprel kunidagi 40-sloni farmoyishiga asosan viloyat IIB JXX YHXB boshlig'ining ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha o'rinnbosari tomonidan o'zi tahsil olgan Mirzaobod tumanidagi 5-umumiy o'rta ta'lim maktabi o'quvchilar bilan uchrashuv tashkil etilib, tadbirda mas'ul rahbar tomonidan o'quvchilarga bir qancha tavsiya va ko'rsatmalar berilib, maktab kutubxonasi fondiga 100 dan ortiq kitoblar jamlanmasi sovg'a qilindi.

Sirdaryo viloyati IIB JXX YHXB Axborot xizmati

E'LONLAR

Fuqaro Shukurov Faxriddin Ishpulatovich nomiga Davtexnazoratning Boyovut tumani bo'limi tomonidan berilgan THG, TGT 003882 raqamli traktorchi-mashinist guvohnomasi va ogohlantirish taloni yo'qolganligi sababli **BEKOR QILINADI.**

Kukanbayev A'zamjon Axmadaliyevich nomiga viloyat IIB Moliyaviy ta'minot xizmati pensiya ta'minoti bo'limi tomonidan 2014-yilda berilgan 2570 raqamli pensiya guvohnomasi yo'qolganligi sababli **BEKOR QILINADI.**

Fuqaro Tursunov Abdurashid Rozikovichga tegishli TTZ 80.11 rusumli traktor uchun Davtexnazoratning Boyovut tumani bo'limi tomonidan 29.04.2023-yilda berilgan UZ-AA 363785 raqamli texnik guvohnomasi yo'qolganligi sababli **BEKOR QILINADI.**

Quyosh panellarining samaradorligi



• Bojaxona hayotidan



Viloyat bojaxona boshqarmasi boshlig'i N. Salimjonov boshchiligidagi Ishchi guruh tomonidan Boyovut tumanidagi "Yangi avlod" mahallasida tashkil qilingan "Yangi O'zbekiston" massivida qurilayotgan ko'p qavatlari uylarga quyosh panellarini o'rnatishning samaradorligi bo'yicha uchrashuv o'tkazildi.

Tadbir davomida qurilish tashkiloti rahbari va mas'ullariga qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish bo'yicha joriy qilingan soliq imtiyozlari va imtiyozli kreditlari haqida tushunchalar berilib, ko'p qavatlari uylarning tomlariga quyosh panellari va quyosh suv isitish kollektorlarini o'rnatishning afzalliklari va elektr energiyasi sarfi haqida so'z yuritildi.

Qurilish tashkiloti tomonidan 2024-yil yakuni bo'yicha hududda 3 ta ko'p qavatlari uylar foydalanishga topshirilgan bo'lib, har birining tomiga 36 ta 300 litr hajmdagi quyosh suv isitish kollektorlari va 5,5 kilovattlik quyosh panellari o'rnatiligan.

Shuningdek, yangi loyihamalar doirasida qurilayotgan 6 ta ko'p qavatlari uy joriy yil yakuniga qadar bosqichma-bosqich foydalanishiga topshirilishi hamda muqobil energiyadan foydalanish hajmini oshirish maqsadida uylarning har biriga 26 ta quyosh suv isitish kollektorlari va quvvati 5,5 kilovattlik bo'lgan quyosh panellarini o'rnatish rejalashtirilgan.

Uchrashuv jarayonida quyosh panellarini importga olib kirishdagi bojaxona imtiyozlari yuzasidan savollarga atroficha javoblar berildi.

Viloyat bojaxona boshqarmasi Axborot xizmati

SUV TOSHQINI VA UNING TALAFOTLARI

Bahor mavsumida kuchli yog'ingarchilkilar davrida suv toshqini hodisasi yuzaga kelish xavfi ortadi. Suv toshqini daryo, kanal, ko'l, suv omborlari yoki dengiz suvi sathining ko'tarilishi natijasida quruqlikni suv bosishi bilan ifodalanadi.

Suv toshqini ham tabiiy ofatlar orasida eng xavfli hisoblanadi. Suv toshqini hodisasiga turli omillar sababchi bo'lishi mumkin. Jumladan, kuchli yomg'ir yog'ishi (jala, sel quyishi), Tog'li hududlarda qorning surunkali erishi, kuchli shamol esishi, oqar daryolardagi muzliklar yig'ilib, sun'iy to'g'on hosil qilinishi, tog' jinslarining nurashi, surilishi yoki boshqa sabablar bilan suv sqashlomlarining buzilishi sabab bo'ladi.

Suv-sel toshqini kelib chiqishi mahallalar, qishloqlar oralig'idan o'tgan kanal, zovur va ariqlarga fuqarolar tomonidan chiqindilar tashlashi, ayrim zovur ariqlarni ko'mib tashlanishi oqibatida suv yo'llarini to'sib, fuqarolar uy joylariga sel-suv toshqinga olib kelishi mumkin.

Viloyatimiz hududida sel-suv toshqini bo'imasligi uchun viloyat hokimi komissiyasi tuzilib, Guliston, Boyovut, Sirdaryo, Mirzaobod, Sayxunobod, Xovos, Oqoltin va Sardoba tumanlaridagi ariq va zovurlar tozalanib, gazish ishlari olib borilmoqda.



• Oldini olgan yaxshi

Xususan, xavfi yuqori bo'lgan Sirdaryo tumani Baxt shahar "Xazina" mahallasi hududidan o'tchi zovurlarda kuchli yog'ingarchilik oqibatida suv toshqinini kelib chiqishininig oldini olish maqsadida qo'shimcha zovurlar barpo etilib, fuqarolar xavfsizligini ta'minlash borasida komissiya a'zolari tomonidan ishlar olib borilmoqda.

Suv toshqini xavfi tug'ilganda aholini o'z vaqtida xabardor qilish, fuqarolarni, moddiy resurslarini, qishloq xo'jaligi hayvonlarini xavfsiz joylarga evakuatsiya qilish eng muhim ishlardan hisoblanadi. Evakuatsiyadan oldin har bir fuqaro o'zi yashab turgan uylarni xavfsiz holatga keltirish, ya'ni gaz, suv, elektr tarmoqlarini o'chirish, deraza va eshilklarni mahkamlab, bekitishlari lozim va o'zi bilan kerakli hujjatlarini, pul

va taqinchoqlarini olishi mumkin. Suv toshqinida qolqan odamlar turli xavfsirashlarga berilmasliklari va suv oqimi bo'yicha past sathli qirg'oq tomon suzishlari (harakatlanishlari) kerak.

Aholi suv ichida qolgan oziq-ovqatlarni yemasliklari va suv ichmasliklari kerak. Yashash joylarida elektrdan foydalansmasliklari lozim, chunki nojo'ya harakat tok urishiga va yong'in chiqishiga olib kelishi mumkin.

Suv toshqinining oldini olish maqsadida yomg'ir suvlarini yig'ish maqsadida suv omborlari qurilib, ortiqcha sunvi unga burib yuboriladi, daryolar, ko'llar qirg'oqlariga mustahkam to'g'on, dambalar qurishi maqsadga muvofiq.

G'. JO'RAYEV, viloyat FVB T va TXFVB kichik inspektori, katta serjant

2025-yil 21-aprel, 15-son (11709)

**GULISTON DAVLAT UNIVERSITETINI 2024-2025-O'QUV YILIDA BAKALAVRIAT BITIRUVCHI TALABALARINI ISHGA TAQSIMLASH (TAVSIYA QILISH)
JARAYONI BOSHLANGANLIGINI MA'LUM QILADI**

| № | Ta'lim | Mutaxassisliklar nomi | Jani bitiruvchilar soni | Jumladan | | Sirdaryo viloyati tumanlari va shaharlar | | | | | | | | | | Viloyatlar | | | | | | | | | | | | | | |
|----|----------|--|-------------------------|----------|----------|--|--------------|------------|--------------|-----------------|-------------|-------------|--------------|------------|----------------|---------------|------------------------|---------|--------|-----------|-------------|--------|--------|---------------|--------------|--------|-----------------|-------------|----------|----------|
| | | | | Grant | Kontrakt | Guliston sh. | Yangiyer sh. | Shirin sh. | Boyovut tum. | Sayxunobod tum. | Guliston t. | Oqotin tum. | Sardoba tum. | Xovos tum. | Mirzaobod tum. | Sirdaryo tum. | Jami Sirdaryo viloyati | Andijon | Buxoro | Samarcand | Surxondaryo | Jizzax | Navoiy | Toshkent vil. | Toshkent sh. | Xorazm | Qoraqalpoqiston | Qashqadaryo | Farg'ona | Namangan |
| 1 | 60230107 | Filologiya va tillarni o'qitish: rus tili | 30 | 10 | 20 | 8 | | 1 | 4 | 2 | | | | | | | 15 | 1 | | 2 | | | 2 | | 1 | 3 | 3 | 15 | | |
| 2 | 60230100 | Filologiya va tillarni o'qitish: o'zbek tili | 88 | 40 | 48 | 4 | 2 | | 11 | 3 | 4 | 2 | 2 | 5 | 4 | 1 | 38 | | 2 | 6 | 4 | 11 | 8 | | | 13 | 3 | 3 | 50 | |
| 3 | 60111500 | Ona tili va adabiyot (qozoq tili va adabiyoti) | 11 | 9 | 2 | | | | | | | | | | | | 0 | | | | | | 9 | | 2 | | | 11 | | |
| 4 | 60111400 | O'zbek tili va adabiyoti | 40 | 14 | 26 | 1 | 1 | | 6 | 4 | 2 | 1 | 3 | 2 | 1 | 2 | 23 | | | 4 | | 3 | 3 | 3 | | | 3 | 1 | 17 | |
| 5 | 60111700 | O'zga tilli guruhlarda rus tili | 107 | 22 | 85 | 4 | 1 | | 11 | 6 | 1 | | 2 | 3 | 3 | 3 | 34 | 2 | 6 | 13 | 5 | 8 | 4 | 12 | | 6 | 1 | 11 | 73 | |
| 6 | 60111800 | Xorijiy til va adabiyoti: ingliz tili | 176 | 43 | 133 | 28 | 5 | 2 | 10 | 9 | 25 | 9 | 8 | 6 | 12 | 13 | 127 | 3 | 1 | 2 | 1 | 10 | 2 | 17 | | 1 | 1 | 3 | 49 | |
| 7 | 60540200 | Amaliy matematika | 25 | 8 | 17 | | | | 4 | 1 | | | 1 | 1 | 1 | 1 | 9 | | 5 | 1 | | 2 | | | 1 | 4 | 1 | 2 | 16 | |
| 8 | 60530900 | Fizika | 49 | 16 | 33 | 5 | | | 2 | 4 | 2 | 1 | 1 | 2 | 4 | 2 | 23 | 2 | 1 | 5 | | 4 | 5 | | | 4 | 3 | 2 | 26 | |
| 9 | 60540100 | Matematika | 86 | 32 | 54 | 3 | 1 | 3 | 3 | 1 | 4 | 1 | 2 | 4 | 2 | 9 | 33 | 1 | 6 | 10 | 2 | 6 | 9 | | 3 | 8 | 7 | 1 | 53 | |
| 10 | 60110600 | Matematika va informatika | 53 | 11 | 42 | 3 | | | 4 | 1 | 4 | 1 | 3 | 1 | 3 | 2 | 22 | 1 | 3 | 3 | 1 | 7 | 1 | 2 | | 1 | 9 | 3 | 31 | |
| 11 | 60110500 | Boshlang'ich ta'lif | 133 | 33 | 100 | 6 | 4 | 1 | 18 | 4 | 8 | 1 | 3 | 3 | 4 | 1 | 53 | 2 | 11 | 9 | 1 | 11 | 2 | 15 | 2 | 6 | 1 | 9 | 7 | 80 |
| 12 | 60920100 | Ijtimoiy ish | 21 | 8 | 13 | | | | 7 | 3 | | 1 | 1 | | 2 | | 14 | | | 1 | 1 | 3 | | 2 | | | | | 7 | |
| 13 | 60112100 | Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va huquq ta'lifi | 42 | 15 | 27 | 3 | | | 5 | 2 | 1 | 1 | 2 | 2 | 4 | 3 | 23 | | 2 | 3 | 1 | 8 | 2 | | | | 1 | 2 | | 19 |
| 14 | 60110100 | Pedagogika va psixologiya | 55 | 19 | 36 | 4 | | | 8 | 2 | 4 | 2 | 6 | 1 | 3 | | 30 | | 1 | 2 | | 11 | 1 | 6 | 1 | | 1 | 2 | 25 | |
| 15 | 60310900 | Psixologiya: amaliy psixologiya | 32 | 12 | 20 | 1 | 1 | 1 | 7 | 2 | 2 | 1 | 3 | 2 | 3 | 2 | 25 | 1 | 1 | | | 2 | 3 | | | | | 7 | | |
| 16 | 60220300 | Tarix | 80 | 32 | 48 | 5 | 2 | 1 | 7 | 4 | 4 | 3 | 1 | 7 | 3 | 4 | 41 | 2 | 3 | 11 | 1 | 9 | 1 | 2 | 1 | 1 | 4 | 4 | 39 | |
| 17 | 60210800 | Amaliy san'at | 14 | 2 | 12 | 3 | | | | 1 | 2 | 2 | | 1 | 2 | | 12 | | | | | 2 | | | | | | 2 | | |
| 18 | 60211500 | Cholg'u ijrochiligi | 21 | 6 | 15 | | | | 5 | 1 | 1 | | 1 | | | 3 | 11 | 1 | | | | 3 | | | | 1 | 5 | | 10 | |
| 19 | 60212000 | Madaniyat va san'at muassasalarini tashkil etish hamda yuritish | 18 | 6 | 12 | 1 | | | | | | 1 | | | | 1 | | 1 | 2 | | 7 | 1 | 1 | | 1 | 1 | 1 | 15 | | |
| 20 | 60210500 | Rangtasvir | 16 | 2 | 14 | 4 | | | 1 | 1 | 2 | | 2 | | 3 | 1 | 14 | | | | | 1 | | | | | 1 | 2 | | |
| 21 | 60211400 | Vokal san'ati | 21 | 4 | 17 | 1 | 3 | 1 | 2 | 1 | 2 | | 3 | | 1 | 14 | | | | 2 | | 3 | | | | 2 | 7 | | | |
| 22 | 60810700 | Agrokimyo va agrotaproqshunoslik | 22 | 8 | 14 | 1 | | | 3 | | 5 | 2 | 2 | | 1 | | 14 | | | 4 | 1 | 1 | | | 1 | 1 | 8 | | | |
| 23 | 60810900 | Agronomiya (anorchilik) | 21 | 3 | 18 | 3 | | | 3 | | 3 | | | 3 | 1 | | 13 | | 3 | 1 | 2 | 1 | 1 | | | | | 8 | | |
| 24 | 60510100 | Biologiya | 97 | 23 | 74 | 9 | 4 | 1 | 7 | 6 | 5 | | 3 | 5 | 6 | 1 | 47 | | 5 | 7 | 1 | 13 | 4 | 2 | | 11 | 3 | 4 | 50 | |
| 25 | 60812100 | Dorivor o'simliklarni yetishtirish | 20 | 5 | 15 | | 1 | | 2 | 2 | | 2 | | 1 | 1 | 9 | 1 | 1 | | 1 | 4 | | | | 2 | 2 | 1 | 11 | | |
| 26 | 60710400 | Ekologiya va atrof-muhit muhofazasi | 24 | 10 | 14 | 2 | 1 | | 4 | | 1 | 3 | | 1 | 1 | 2 | 15 | | 1 | 2 | 2 | 1 | 1 | 1 | | 1 | 9 | | | |
| 27 | 60111000 | Geografiya va iqtisodiy bilim asoslari | 46 | 17 | 29 | 6 | 1 | | 9 | 2 | 1 | | 2 | 4 | 5 | 2 | 32 | | 2 | 8 | | 3 | | | 1 | | | 14 | | |
| 28 | 60812000 | Issiqxonha xo'jaligini tashkil etish va yuritish | 17 | 4 | 13 | 3 | | 1 | 2 | | | 1 | | | | 7 | 1 | | | 6 | 2 | | | | 1 | | | 10 | | |
| 29 | 60530100 | Kimyo | 96 | 23 | 73 | 1 | 2 | 1 | 14 | 6 | 8 | 1 | 4 | 2 | 8 | 5 | 52 | | 2 | 11 | | 17 | 1 | 8 | 1 | | 4 | 44 | | |
| 30 | 60811900 | Sabzavotchilik, polizchilik va kartoshkachilik | 14 | 7 | 7 | 1 | | | 1 | 2 | | | | | 1 | | 5 | | 3 | 2 | | 3 | | | 1 | | | 9 | | |
| 31 | 60710200 | Biotexnologiya | 24 | 4 | 20 | 1 | | | 5 | | 3 | | | 1 | 1 | | 11 | | 1 | 3 | | 1 | 1 | 2 | 1 | 1 | 2 | 13 | | |
| 32 | 60811800 | Meva-sabzavotchilik va uzumchilik | 10 | 3 | 7 | 1 | | | 2 | | 2 | 1 | | 2 | | 8 | | | 1 | 1 | | | | | | | 2 | | | |
| 33 | 60720100 | Oziq-ovqat texnologiyasi | 37 | 6 | 31 | 1 | 1 | 1 | 3 | 2 | 2 | 1 | 2 | 4 | 2 | 2 | 21 | | 1 | 4 | 1 | 4 | 5 | | | 1 | | 16 | | |
| 34 | 60811300 | Qishloq xo'jalik mahsulotlarini saqlash va qayta ishlash texnologiyasi | 70 | 22 | 48 | 5 | 2 | | 8 | 2 | 8 | 7 | 1 | 4 | 5 | 5 | 47 | | | | | | | | | | | | | |

▼ Oramizdag'i odamlar

Kutubxonaga muntazam tashrif buyuradigan yoshi ulug' faol kitobxonlarimiz talaygina. Ular yoshlarga do'stlik, ahillik, halollik, mehr-oqibat, irodali bo'lish, mas'uliyat hissini anglash kabi axloqiy fazilatlarni o'rganish uchun ko'proq kitob mutolaa qilish kerakligi, kitob hayotdagi eng sodiq do'st ekanligini ta'kidlaydilar.



Mutolaaga mehr qo'ygan otaxon

Har kuni ishga kelganimda kutubxona eshigida meni kutib turgan yoshi ulug' kishilarni ko'rib, diliim yayradigan. Ziyo maskani nuroniy larning sevimli dargohi bo'lib qolgan. Ular u yerda o'zlarini qiziqqan adabiyotlarni topib, sevib o'qiydilar. Xudoyberdi Rayimberdiyev, Ro'ziboy Shodiyev, Obloqul Ahmedov, Inoyat To'raqulova, Nortoji Shodiyeva, Homidjon Shoyimqulovlar kutubxonamizning faol a'zolari.

Xodimlarimiz kitobga chanqoq nuro-niyлага kerakli kitoblarni tanlashda ko'maklashadilar. X.Rayimberdiyev 10 yildan beri kutubxonaga a'zo. U kishi ojlada mehribon ota, shirin-shakar nevaralarining sevimli bobojoni. Xudoyberdi ota farzandlari — Musurmon, Shavkat, To'iqin, Erkin, qizlari Sayyora va Gulsaralarni el-yurtga munosib qilib tarbiyalagan. Kitobga bo'lgan mehri, qiziqishi uni hayotga teran qarashga o'rgatish bilan birga she'riyatga bo'lgan qiziqishini ham orttirdi. Otaxon turli mavzudagi bitiklarini kutubxona xodimlariga va o'zi kabi kitobsevar do'stlariga o'qib beradi. Uning she'rlaridan kutubxonada o'tkaziladigan turli tadbirlarning ssenariylarini yozishda foydalanamiz.

Faol kitobxonimiz kutubxonadagi barcha adabiyotlarni o'qib chiqqan, desak, mubolog'a

bo'lmaydi. Xudoyberdi ota Abdulla Oripov, Halima Xudoyberdiyeva, Zulfiyaxonim she'riyatiga juda qiziqadi, taniqli turk yozuvchisi Ahmad Lutfiy Qozonchi asarlarini, jadid adabiyoti namoyondalarining asarlarini sevib mutolaa qiladi. Shuningdek, otaxon bu yerda o'tkaziladigan kitobxonlik, she'riyat kechalarida, ijodkorlar bilan uchrashuvlarda faol ishtirot etadi, o'qigan kitoblari haqidagi fikr-mulohazalarini bildiradi.

— Hayotim davomida chiqargan eng katta xulosalarimdan bir shu bo'ldiki, kitob o'qib, ma'rifat, ilm istagan inson hech qachon kam bo'lmaydi va hayotda o'z o'rnini topadi. Kitob mutolaa qilish insonga o'zgacha zavq beradi, uning hayot, odamlar haqidagi tasavvurini oshiradi, — deydi Xudoyberdi ota.

Nuroniy kitobxonlarimiz ko'payaversin, biz — kutubxona xodimlari ularga xizmat ko'rsatishdan charchamaymiz. Yaqinda ziyo maskanimizda bo'lib o'tgan kitobxonlar festivallida nuroniy otaxonlarimiz Faxriy yorilqlar va esdalik sovg'alarini bilan taqdirlandilar.

Oydin ESHKAZAKOVA,
Boyovut tumanidagi axborot kutubxona
markazi bibliografiya xizmati rahbari

KO'NGIL (Hikoya)

Oysuluv momo shoshib qoldi. O'rnidan turganida derazadan oftobning olachalpoq nurlari xonani yoritib turardi. Darrov yonidagi divanga yuzlandi. Dilnavoz yo'q. Yuragi tovoniqa tushib ketdi. Yuz-ko'lini yuvishni ham unutib, zalga chiqdi.

Zalning u boshidan muolaja xonasi yonidan oq xalatlari hamshira bilan qo'ish ushlashib kelayotgan nabirasin ko'rib, momoning ko'ngli ko'nchikdi. Dilnavoz qo'lida oq qog'ozni shildiratgancha hamshira bilan nimalarni gaplashib kelardi.

— Enajon, yaxshi yotib, turdingizmi? Hoynahoy mendan xavotirlanib, izimdan chiqqan bo'lsangiz kerak. Kecha qo'shni xonadagi dugongangiz bilan ko'-o'-o'p gaplashib, kech yotdingizda. Shuning uchun oromingizni buzgim kelmadi.

— Obbo! Qaqajon! Uyg'otsang bo'lardi-ku! Bomdodni ham yeb qo'yibman. Xonaga kirib tur, yuz-ko'limni yuvib chiqaman!

Momo xonaga kirganida Dilnavoz qog'ozga nimalarni chizish bilan andarmon edi. Nabirasingin qo'lidi qizil qalam qog'oz yuzida erkin yuzardi.

— Momo, bugun Ozoda opaning tug'ilgan kuni ekan. E'lionlar doskasiga ko'zim tushdi. U kishidan qo'rqaman. Doim dori-darmon yozib bergani-

bergan.

— Doktor opang yuraging sog'ayib ketsin, deydi-da, girgitton. Bolalikda olingan shifo yaxshi em bo'larkan.

— Men u kishiga sovg'a tayyorladim. Mana, ko'ring, momo!

Momo oq qog'oz yuziga ser soldi. Qog'ozning o'tasida katta yurak, uning atrofida o'nlab yurakchalar darj etilgan edi.

— Mana bu katta yurak shifokor opaniki. Mana bu yurakchalar esa shifoxonada davolanayotgan men va tengurlarimmi. Momo, sizga yodqdim? Doktor opaga sovg'a qilsam, rosa quvonsalar kerak...

Bo'rini yo'qlasang, qulog'i ko'rindi, deganlaridek, eshik ochilib, shifokor hamshirasi bilan kirib keldi. Momodan Dilnavozning salomatligini so'radi.

— Yana bir ukol dori yozib beraman. Nabirangizning yuragiga quvvat bo'ladi.

Dilnavozning yuzi burishdi. Doktor tumbochka ustidagi qizaloq chizgan suratlar aks etgan qog'ozning bir chetidan yirtib oldi-da, chumoli yurishga mengzab ketadigan xat bilan ukol nomini yoza boshladi.

— Bugundan bemorga shu ukolini boshlaysiz! — deya hamshiraga buyruq bergannamo tikildi. So'ngra to'rsayib xonadan chiqib ketdi.

Xonada birpas sovuq sukonat hukm surdi. So'ngra qizaloq yig'isi eshitildi.

— Voy, yurakchalarim!

Muhammadali AHMAD



Ko'rgazma

Viloyat "Ma'naviyat va ma'rifat" markazining kartinalar galereyasida Sirdaryo ixtisoslashtirilgan san'at maktab-internati o'qituvchisi, O'zbekiston badiiy ijodkorlar uyushmasi a'zosi G'anisher Normatov va shogirdlarining "Atrof-muhitni asrash va "yashil" iqtisodiyot" yiliga bag'ishlangan "Ranglarimda kecha va bugun" deb nomlangan ko'rgazmasi ish boshladi.

"Ranglarimda kecha va bugun"



Tadbir avvalida ko'rgazma mualliflarini O'zbekiston Badiiy akademiyasining akademigi, professor Nuritdin Kalonov, O'zbekiston badiiy ijodkorlar uyushmasi viloyat bo'limining rahbari Anorqul Boybekov, Sirdaryo ixtisoslashtirilgan san'at maktab-internati direktori Bahodir Bobonazarovlar samimiy qutladilar. G'anisher Normatov va uning shogirdlariga uyushmaning Tashakkurnomalari va kitoblar jamlamalari tantanalı ravishda topshirildi. Nuritdin Kalonov esa Sirdaryo ixtisoslashtirilgan san'at maktab-internati kutubxonasiga

yangi nashrdan chiqqan "Samarqand ruhi" albomini sovg'a qildi.

Ko'rgazmadan G'.Normatov va uning shogirdlari mo'ylamliga mansub portret, peyzaj va etyud janrlarida ishlangan 60 ga yaqin ijodiy ishlar o'rinni oglan.

— Bu men va shogirdlarimning to'rtinchisi ko'rgazmamiz, — deydi G'.Normatov. — Galdagi ko'rgazmamizda asosan viloyatimiz va Guliston shahrining taniqli insonlari portretlari hamda yurtimizning go'zal go'shalari manzaralarini polotlonlarda muhrashga harakat qildik. Zero, rassom uchun ona yurt kishilari va

ko'rkam tabiatli ilhom baxsh etishi hech kimga sir emas.

— Ko'rgazmadan ulkan zavqu shavq oldim, — deydi Guliston davlat universiteti o'qituvchisi,

O'zbekiston badiiy ijodkorlar uyushmasi a'zosi Tohir Zamon.

— Ajoyib asarlar. G'anisher va shogirdlariga kelgusi ijodlarida muvaffaqiyatlardan tilayman.

Ko'rgazma viloyat "Ma'naviyat va ma'rifat" markazining kartinalar galereyasida bir oy davom etadi.

M. AHMEDOV
Tasvirlarda: ko'rgazmadan lavhalar.
Suratlar muallifnikni.



YANGI SIRDARYO

Bosh muharrir:
Bahrom BOYMURODOV

Muassis: Sirdaryo viloyati hokimligi

2020-yil 25-iyunda Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi Sirdaryo viloyati boshqarmasida 10-023 raqami bilan ro'yxatga olingan.

TELEFONLAR:
Qabulxona: (33) 355-07-45,
O'rinosbos: (94) 955-54-02,
Bo'limlar: (93) 271-51-58,
(99) 913-11-56, (99) 476-82-19,
reklama va e'londar:
(99) 646-07-45.

Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqriz qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi. Chop etilgan maqolalardagi ma'lumotlar va raqamlar to'g'riligi uchun javobgarlik muallif zimmasida.

Gazeta "Yangi Sirdaryo" tahririyati kompyuter markazida terilib, sahifalandi. A-3 formatda, 8 sahifada 2 bosma taboq ofset usulida "SHARQ" NMAKda 4 000 nusxada chop etildi. Bosmaxona manzili: Toshkent sh., Mirobod tumani, Buyuk Turon ko'chasi, 41-uy. Tel.: (71) 233 11 07. Buyurtma Γ-448

Bizga yozing: 120100, Guliston shahri, Navoiy shohko'chasi, 30-uy. Telegram: @yangisirdaryogazetasi Facebook: Yangi Sirdaryo gazetasi Instagram: @yangisirdaryogazetasi Website: sirdaryo24.uz YouTube: Yangi Sirdaryo 24

NAVBATCHI:
H. ABDUVOHIDOV

Nashr ko'rsatkichi 459.
ISSN 2181-5984
Topshirish vaqt - 19.00
Topshirildi - 21.00
21.04.2025-yil
—Tijorat materiali
Sotuvda erkin narxda